

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.45:677(575.1)

RAXIMOV FURQAT JALOLOVICH

**KIMYO TOLALARI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI
KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYA FAOLIYATINI JADAL
RIVOJLANTIRISH**

08.00.03-“Sanoat iqtisodiyoti”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, prof.

Toshkent-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB KIMYO TOLALARI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYA FAOLIYATINI JADAL RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHALARI.....	12
1.1. Kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarini diversifikatsiyalashning mohiyati va iqtisodiy asoslari	12
1.2. To‘qimachilik korxonalarida diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishning afzalliklari va o‘ziga xosligi.....	23
1.3. Jahonda kimyo tolalariga asoslangan to‘qimachilik sanoatini rivojlanishi va tarmoqni diversifikatsiyalash usullari.....	39
Birinchi bob bo‘yicha xulosa	55
II BOB O‘ZBEKISTONDA TO‘QIMACHILIK SANOATINI KIMYO TOLALARI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYALASH HOLATI TAHLILI.....	57
2.1. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining xomashyo manbalari va kimyo tolalari ishlab chiqarishni rivojlanishi.....	57
2.2. To‘qimachilik sanoatida kimyo tolalari bozori va korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlari tahlili.....	66
2.3. Kimyo tolalarini qayta ishlovchi korxonalarining iqtisodiy holati va diversifikatsiyalashuv darajasi tahlili.....	76
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	91
III BOB KIMYO TOLALARI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYA FAOLIYATINI JADAL RIVOJLANTIRISHNING TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI.....	92
3.1. To‘qimachilik va moda industriyasida yashil innovatsiyalar: sintetik tolalardan foydalanishning muqobil yechimlari va mahsulotlar raqamli pasportini yaratish mexanizmlari.....	92
3.2. Kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiyalash asosida eksport imkoniyatlarini oshirish	110
3.3. To‘qimachilik korxonalarida kimyo tolalari ishlab chiqarish asosida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish istiqbollari.....	118
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	130
XULOSA	132
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	135
ILOVALAR	144

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida to‘qimachilik sanoatining ahamiyati ortib bormoqda. Yangi ish o‘rinlari yaratish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga hissa qo‘shish, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, xalqaro savdoni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shish mazkur tarmoqning asosiy afzalliklaridan hisoblanadi. Jahonda XX asrning oxiridan boshlab kimyoviy tolalar ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur‘ati bo‘yicha tabiiy tolalarni ortda qoldirib kelmoqda. ““Data Bridge Market Research” tahlil qiladiki, 2022-yilda 27,88 milliard dollar bo‘lgan global to‘qimachilik kimyosi bozori 2030-yilga kelib 41,82 milliard dollargacha ko‘tariladi va 2023-yildan 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz davrida 5,2 foizga o‘rtacha o‘sishi kutilmoqda”¹. To‘qimachilik sanoati nafaqat jahon iqtisodiyotiga, balki ijtimoiy rivojlanish va ekologiyaga ham muhim ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu tarmoqda innovatsiyalar, barqarorlik va xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash global iqtisodiy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim omillardan biridir.

Jahon to‘qimachilik sanoatida sintetik tolalarning barqarorligini yaxshilash, atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirish va qayta ishlash bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan tadqiqot va ishlanmalarga keng e‘tibor qaratilmoqda. Yangi turdagi kimyoviy tolalarni, masalan, biopolimerlar va qayta ishlangan tolalarni ishlab chiqarishni o‘rganish, to‘qimachilik mahsulotlari uchun mahalliy va xalqaro bozor ehtiyojlarini aniqlash, tolalarni funksional xususiyatlar bilan ta‘minlaydigan ilg‘or ishlov berish texnologiyalarini joriy etish, to‘qimachilik sanoatida resurslarni tejash, suvni qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni joriy etish bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda kimyoviy tolalar bozorida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va mazkur sanoatni rivojlantirish orqali qo‘shilgan qiymat yaratish

¹ <https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-textile-chemicals-market>

mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni bilan "To'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish"² vazifasi belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun sun'iy tolalarni ishlab chiqarishni ko'paytirish, yangi turlarini yaratish kabi innovatsiyalarga ahamiyat qaratish, O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining xomashyo manbalarini yaratish va kimyo tolalari ishlab chiqarishni rivojlantirish, ishlab chiqarish imkoniyatlari va samaradorlikni tahlil qilish, kimyo tolalarini qayta ishlovchi korxonalarining iqtisodiy holati raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash, sintetik tolalardan foydalanishning muqobil yechimlari va mahsulotlar raqamli pasportini yaratish mexanizmlarini ishlab chiqish, to'qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiyalash asosida eksport imkoniyatlarini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish istiqbollari belgilab berish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

2022-yil 30-sentyabrdagi 556-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 10-dekabrdagi 733-son “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda soha faoliyatiga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. To‘qimachilik sanoati korxonalarini diversifikatsiyalash asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda eksport salohiyatini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, S.Aishwariya, M.J.Jaisri, Q.Zhang, E.Hurmekoski, A.M.Colpan, A.K.Samanta, A.Mukhopadhyay, S.K.Ghosh, M.Fromhold-Eisebith va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan³.

To‘qimachilik sanoati korxonalarini kimyoviy tolalardan foydalanishni barqaror iqtisodiy o‘shish maqsadlariga mos tashkil etishga qaratilgan yo‘nalish bo‘yicha MDH davlatlari olimlaridan V.V.Akimova, M.A.Kupsova, D.L.Goryayev,

³ Aishwariya S., Jaisri M. J. Harmful effects of textile wastes. – 2020.; Zhang Q. et al. Diversification and performance of group-affiliated firms during institutional transitions: The case of the Chinese textile industry //American Journal of Economics and Business Administration. – 2011. – T. 3. – №. 2. – C. 234-246.; Hurmekoski E. et al. Diversification of the forest industries: role of new wood-based products //Canadian Journal of Forest Research. – 2018. – T. 48. – №. 12. – C. 1417-1432.; Colpan A. M. et al. Product Diversification and Financial Performance of Japanese Textile Firms: An Econometric Appraisal //The Kyoto University Economic Review. – 2003. – T. 72. – №. 1-2. – C. 35-50.; Samanta A. K., Mukhopadhyay A., Ghosh S. K. Processing of jute fibres and its applications //Handbook of natural fibres. – Woodhead Publishing, 2020. – C. 49-120.; Fromhold-Eisebith M. et al. Torn between digitized future and context dependent past—How implementing ‘Industry 4.0’ production technologies could transform the German textile industry //Technological Forecasting and Social Change. – 2021. – T. 166. – C. 120620.;

O.N.Zotikova, S.G.Dembiskiy, S.V.Shurina, Ye.E.Nikolayeva va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar⁴.

O‘zbekistonning iqtisodchi olimlaridan N.M.Maxmudov, S.O.Xomidov, N.R.Avazov, Sh.Yodgorova, S.K.Abdullayeva, G.M.Davlyatova, D.Sh.Raximov, Sh.P.Xayitov, Z.A.Xakimov va boshqalar to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishgan⁵.

Mazkur tadqiqotlarda to‘qimachilik sanoatida xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan qiymat zanjirini yaratish, korxonalarining eksport salohiyatini oshirish, marketing strategiyalaridan foydalanish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish kabi masalalarda tadqiqotlar olib borilgan. Biroq mamlakatimiz olimlari tomonidan kimyo tolalari ishlab chiqarishni va tarmoqni diversifikatsiyalash, korxonalarni yangi mahsulot turlarini yaratish hamda diversifikatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi mazkur o‘rganilayotgan muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

⁴ Акимова В. В., Купцова М. А. Глобальные производственные сети в швейной промышленности Азии //Вестник Московского университета. Серия 5. География. – 2023. – №. 3. – С. 68-81.; Лиджи-Горяев Д. В. Проблемы качества переработки шерстяного сырья в текстильной промышленности России //Перспективы развития отрасли и предприятий АПК: отечественный и международный опыт. – 2020. – С. 450-454.; Зотикова О. Н., Дембицкий С. Г. Тенденции выпуска текстильных изделий и одежды в России //Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2020). – 2020. – С. 98-102., Щурина С. В. Последствия пандемии для инвестиций в текстильную промышленность России в 2022 году и в среднесрочной перспективе //Экономика. Налоги. Право. – 2022. – Т. 15. – №. 1. – С. 124-133.; Николаева Е. Е. Проблемы и перспективы развития промышленного производства в современных условиях (на примере Ивановской области) //Россия: тенденции и перспективы развития. – 2022. – №. 17-2. – С. 292-296.;

⁵ Махмудов Н. М., Хомидов С. О., Авазов Н. Р. Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида санонат тармоқларини ривожлантириш //Монография)–Т.:“Инновацион ривожланиш нашриёт-магбаа уйи. – 2020. – Т. 228.; Ёдгорова Ш. Мустақиллик йилларида ўзбекистонда тўқимачилик саноатини ривожлантириш йўналишлари //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 119-130.; Abdullayeva S. K., Davlyatova G. M. Тўқимачилик саноати корхоналарининг иқтисодий барқарорлигини инновацион ривожлантириш масалалари //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 6-8. – С. 7-21.; Рахимов Д. Ш. Миллий саноат корхоналарида диверсификацияни қўллаш сифатини аниқлашнинг асосий кўрсаткичлари //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 40. – №. 2. – С. 18-22. Хайитов Ш. П. Мосланувчан бошқарув тизими асосида тўқимачилик корхоналари барқарор ривожланишини таъминлаш йўллари //Editorial board: Tone Roald, PhD Associate Professor of Psychology University of Copenhagen. – 2021. – С. 175.; Хакимов З. А. Трансформация кластеров “Индустрия 4.0” //Инновации и инвестиции. – 2022. – №. 3. – С. 207-213.

tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq ilmiy loyiha asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi:

kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiya faoliyatini jadal rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarini diversifikatsiyalashning ahamiyatini aniqlash;

to‘qimachilik korxonalarida diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishning afzalliklari va o‘ziga xosligini ochib berish;

jahon mamlakatlarida kimyo tolalariga asoslangan to‘qimachilik sanoatini rivojlanishi va tarmoqni diversifikatsiyalash tajribalaridan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining xomashyo manbalari va kimyo tolalari ishlab chiqarishni rivojlanish holatini tahlil qilish;

to‘qimachilik sanoatida kimyo tolalari ishlab chiqarish imkoniyatlari va samaradorlikni tahlil qilish;

kimyo tolalarini qayta ishlovchi korxonalarining iqtisodiy holati raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash;

kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiya faoliyatini jadal rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish;

kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiyalash strategiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha takliflar berish;

to‘qimachilik klasterlarida kimyo tolalari ishlab chiqarish asosida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish istiqbollari belgilab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi kimyo tolalarini ishlab chiqaruvchi to‘qimachilik korxonalarini tanlangan.

Tadqiqotning predmeti kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarini diversifikatsiyalash jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, kuzatuv, statistik tahlil, korrelyatsion, regression va dispersion tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aralash va kimyo tolalari asosida ishlovchi to‘qimachilik klasterlarining mahsulot ishlab chiqarishning minimal qiymat zanjirini yaratish va past quvvat bilan yuqori bozor salohiyatini namoyon etish holatiga ko‘ra baholash orqali diversifikatsiya darajalarining yuqori ($6,5 \leq I_s \leq 10$), o‘rta ($3,0 \leq I_s \leq 6,4$) va quyi ($0 \leq I_s \leq 2,9$) me‘yoriy qiymatlari taklif etilgan;

to‘qimachilik sanoati va moda industriyasida barqaror rivojlanishni ta‘minlash, qiymat zanjirida aylanma iqtisodiyot ulushi, xomashyoni qayta ishlash ko‘lami va iste‘molda zararli ta‘sirlarni kimyo tolalari va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqamli pasportini joriy etish orqali kamaytirish taklif etilgan;

intensiv va ekstensiv marja qiymatlarini hisobga olgan holda “past darajadagi diversifikatsiya” ($0 \% \leq D_p \leq 1\%$), “o‘rta darajadagi diversifikatsiya” ($2 \% \leq D_o \leq 5\%$), “yuqori darajadagi diversifikatsiya” ($6 \% \leq D_y \leq 10\%$), “diversifikatsiyalangan eksport (ekstensiv o‘shish)” ($11 \% \leq D_e$) darajalarda baholash orqali kimyo tolalari tashqi savdosini tartibga solish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining kimyo tolalari bo‘yicha diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishning sinergiya samarasi asosida ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarini diversifikatsiya strategiyalarining asosiy afzalliklari va kamchiliklari xususiyatlari aniqlangan;

diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirishning tashkiliy boshqaruv jarayonlari va amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

sun'iy tolalarning global ishlab chiqarish va ulardan foydalanish me'yorlariga ko'ra O'zbekistonda kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari aniqlangan;

gilam mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun mahsulot assortimenti tasnifi 1 m² gilam mahsulotlari uchun sarflanadigan xomashyo turlari va ularning sarfi me'yorlari aniqlangan;

to'qimachilik sanoati va moda industriyasida yashil innovatsiyalar, sintetik tolalardan foydalanishning muqobil yechimlari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va umumlashtirilgani, kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiya faoliyatini jadal rivojlantirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilingani, axborotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalari asosida shakllanganligi va ularning samarali tahlili, jumladan, maxsus dasturlash tizimidan foydalanish orqali qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan to'qimachilik sanoatini jadal rivojlantirish va kimyoviy tolalar asosida sohani diversifikatsiyalash strategiyasini shakllantirish hamda takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash asosida yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, tarmoqni diversifikatsiyalash va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan strategiyalarini ishlab chiqish hamda bu borada amalga oshiriladigan loyihalarni ishlab chiqish va tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kimyo tolalari asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarining diversifikatsiya faoliyatini jadal rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

aralash va kimyo tolalari asosida ishlovchi to‘qimachilik klasterlarining mahsulot ishlab chiqarishning minimal qiymat zanjirini yaratish va past quvvat bilan yuqori bozor salohiyatini namoyon etish holatiga ko‘ra baholash orqali diversifikatsiya darajalarining yuqori ($6,5 \leq I_s \leq 10$), o‘rta ($3,0 \leq I_s \leq 6,4$) va quyi ($0 \leq I_s \leq 2,9$) me‘yoriy qiymatlaridan foydalanish taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining “Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi” faoliyatida foydalanilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 30-sentyabrdagi №03/25-2585 sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik klasterlarining diversifikatsiya darajasi baholangan va qiymat zanjirini yaratish bo‘yicha 2023 – 2026-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan 820,2 million AQSH dollari miqdorida 28 ta investitsion loyihalar belgilab olingan;

to‘qimachilik sanoati va moda industriyasida barqaror rivojlanishni ta‘minlash, qiymat zanjirida aylanma iqtisodiyot ulushi, xomashyoni qayta ishlash ko‘lami va iste‘molda zararli ta‘sirlarni kimyo tolalari va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqamli pasportini joriy etish orqali kamaytirish taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining “Brendlarni jalb qilish, marketing, xalqaro standartlar va sertifikatni joriy etish departamenti” faoliyatida foydalanilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 30-sentyabrdagi №03/25-2585 sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur takliflar mahsulotlarning (tovar va xizmatlarning) unifikatsiyalashgan nomlari va identifikatsiyalash kodlari integratsiya qilish va mahsulotlarning raqamli pasportini tizimini boshqarish bo‘yicha maqsadli strategik dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan;

intensiv va ekstensiv marja qiymatlarini hisobga olgan holda “past darajadagi diversifikatsiya” ($0 \% \leq D_p \leq 1\%$), “o‘rta darajadagi diversifikatsiya” ($2 \% \leq D_o \leq 5\%$), “yuqori darajadagi diversifikatsiya” ($6 \% \leq D_y \leq 10\%$), “diversifikatsiyalangan eksport (ekstensiv o‘sish)”

($11\% \leq D_e$) darajalarda baholash orqali kimyo tolalari tashqi savdosini tartibga solish taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining “Eksport va logistikani rivojlantirish bo‘limi” faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 30-sentyabrdagi №03/25-2585 sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklif asosida mahalliy to‘qimachilik korxonalarida yangi mahsulot turlarini eksport qilish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilgan va “Sun’iy shtapel tolalari” turi bo‘yicha 2023-yilda 2022-yilga nisbatan eksportni 14,5 foizga oshirishga hamda eksport geografiasini kengaytirishga erishilgan;

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining kimyo tolalari bo‘yicha diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishning sinergiya samarasi asosida ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlari “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining “Eksport va logistikani rivojlantirish bo‘limi” faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 30-sentyabrdagi №03/25-2585-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida kimyo tolalari asosida 2030-yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmining 4,7 marta oshirish imkoni aniqlanib, tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalashning istiqboldagi ko‘rsatkichlarini yanada aniqlashtirish va muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 3 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola va 6 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 143 betdan iborat.